

## Turli Xalqlar Lingvomadaniyatidagi Stereotiplar Tahlili

*Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna*<sup>1</sup>, *Rakhimova Nargiza Baxshillayevna*<sup>2</sup>

**Annotatsiya:** Mazkur maqola turli xalqlar lingvomadaniyatlardagi stereotip tushunchasiga izoh berish bilan birga, jahondagi mashhur madaniyatlardagi xalqlar haqidagi stereotiplar tahliliga ba'ishlangan. Stereotip tushunchasining lingvomadaniyatshunoslik sohasiga kirib kelishi tarixi, uning rivojlanish bosqichi, unga turli tilshunos olimlarning bergan ta'riflari tahlili ham mazkur tezisda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** stereotip, ruhiy shakllanishlar, obraz, madaniyatlararo muloqot, madaniy stereotiplar, madaniyatlararo aloqalar.

Stereotip (yunoncha stereos – qattiq, typos – iz) tushunchasi 1922-yilda —Ommaviy fikr kitobi muallifi amerikalik sotsiolog U.Lippman tomonidan muomalaga kiritilgan. Lippmanning fikriga ko'ra, stereotip "atrofdagi dunyoni idrok etishning maxsus shakli bo'lib, bu ma'lumotlar bizning ongimizga yetib borgunga qadar bizning hislarimiz ma'lumotlariga ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi". Stereotiplar paydo bo'lishining psixologik mexanizmi insonning kundalik tafakkuriga xos bo'lgan harakatni tejash tamoyiliga asoslanadi. Voqelikning takrorlanuvchi hodisalari allaqachon ma'lum bo'lgan toifalarga kiradi, odatiy modellarga tasniflanadi, ular stereotiplar deb ataladi. Agar ular tark etilsa, hayot jarayoni doimiy keskinlikni talab qiladi. Stereotiplar insonga atrofidagi dunyoni farqlash va soddalashtirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda xalqlar, tillar va madaniyatlarning aralashib ketishi misli ko'rilmagan miqyosga ko'tarilib, yot madaniyatlarga bag'rikenglikni tarbiyalash, ularga qiziqish va hurmatni uyg'otish muammosi ayniqsa keskinlashdi. Har bir xalqning vakillari o'z va chet el madaniyati, o'zini o'rab turgan dunyo haqida o'z qiyofasini yaratadilar. Bu bilim og'zaki shaklda ham mavjud [1]. Bunday ruhiy shakllanishlar stereotiplar deb ataladi.

Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. Stereotip tushunchasi haqiqatdan ham, ma'lum bir millatning hamma uchun umumiy ko'rinuvchi izi yoki o'ziga xos belgisi desak xato bo'lmaydi. Aytilganidek, har bir teshaning o'z izi bo'ladi deyilganidek, har bir xalqning faqatgina o'zigagina xos xususiyati bo'ladi. Masalan, umumiy jihatdan madaniyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak: o'zbek xalqi o'ziga xos mehmonnavoz, mehribon, er yigitlari tanti, hamiyati baland, qiz va ayollari esa ibo-hayoli, nomusi o'limdan qattiq; rus xalqi tavakkalchi, shartaki, ochiq muloqotni xush ko'ruvchi; qozoqlar bir so'zlik; turk millati esa ta'sirchan, his-tuyg'uga beriluvchan; xitoyliklar esa anchagina takallufga boy; yaponlar esa anchayin xushmuomala, madaniyatli, etiket qoidalariga qat'iy amal qiluvchi; estonlar esa tabiatan muloyim; italyanlar qiziqqon bo'lib, sal deganda lov etib yonuvchan; inglizlar esa italyanlarning esa tamomila aksi anchagina sovuqqon bo'lib, his-tuyg'ularga berilishlari biroq qiyin.

Stereotiplar bir xalqning boshqa xalq haqidagi ma'lumotlari, boshqa xalqning an'analari, odob-axloq me'yorlari ta'sirida shakllanadi. Obrazlarda turli millat vakillarining temperamenti va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari, ma'lum ruhiy sifatleri aks etadi. Stereotiplarning ahamiyati shundaki, ular insonning o'z tajribasidan tashqariga chiqadigan tajriba asosida yaratilgan dunyo haqidagi tasavvurini yaratadi. Shakllanish madaniy muhit ta'sirida sodir bo'ladi va ular keyingi avlodlarga berilgan holda o'tadi. Madaniyatlararo muloqot jarayonida sheriklardan biri ikkinchisini o'z harakatlari bilan birga idrok etadi. O'zaro munosabatlarni o'rnatish boshqa odamning harakatlarini

<sup>1</sup> Ph.D, BuxDU ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.

<sup>2</sup> BuxDU II bosqich magistranti



to'g'ri tushunishga bog'liq. Stereotiplar yordamida insonga ma'lum xususiyat va fazilatlar beriladi va shu asosda uning hatti-harakati baholanadi. Shunday qilib, umumiy muloqotda ham, madaniyatlararo aloqalar jarayonida ham stereotiplar juda muhim rol o'ynaydi.

Stereotip hodisasi va stereotiplash jarayoni o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, insoniyat tarixi davomida kuzatilishi mumkin. Biroq, stereotip tushunchasining o'zi, shuningdek, stereotiplash fenomeni bilan bog'liq bir qator muammolar mafkura, tashviqot qilish sohalaridagi o'zgarishlar bilan bir qatorda XX asrda paydo bo'lgan. Hozirgi bosqichda ushbu sohalardagi tadqiqotlar ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Mafkuraviy-siyosiy hodisalar, shuningdek, marketing, reklama va jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi ehtiyojlar bilan bog'liq ayrim stereotiplarni shakllantirish va yo'q qilish mexanizmlarini yaratish sohasidagi amaliy ishlanmalar dolzarbligicha qolmoqda [3].

Zamonaviy dunyoda deyarli har qanday davlat ko'p madaniyatli xususiyatlarga ega. Butun davrlar davomida shakllangan etnik ong va madaniyatning tartibga soluvchilari tug'ma yoki orttirilgan madaniy stereotiplardir. Ularning qo'lida bo'lgan har qanday shaxs o'z etnik guruhi va madaniyati bilan birlikni his qiladi. Insoniyat turli etnik jamoalarning o'z individualligini saqlab qolish huquqini tan olishga yaqinlashmoqda va iloji bo'lsa, bu holatni zamonaviy dunyoda ko'pincha millatlararo aloqalarda mavjud bo'lgan shaxsiy huquqbuzarlik hissisiz qabul qiladi. Salbiy etnik stereotiplarning tarqalishi uchun asos etnotsentrizmdir - bu qaysidir ma'noda (o'z etnik guruhiga, uning madaniy qadriyatlariga nisbatan g'urur tuyg'usi) vatanparvarlik bilan qo'shilib ketadigan, boshqa tomondan esa (kibr, boshqa xalqlarni mensimaslik, qarama-qarshilik) "o'zinikidan" "begona"ga) - shovinizm bilan aloqador. Salbiy nuqtda quyidagilarda namoyon bo'ladi: etnik stereotiplar to'siqsiz millatlararo muloqotga to'siq bo'lib xizmat qiladi, ular etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni qiyinlashtiradi. Ijobiy jihat shundaki, stereotiplar etnik guruhlarining tarixiy tajribasini to'plagan holda, etnik guruhlarining ma'naviy madaniyatini saqlashga faol yordam beradi. "Xalq ichki dunyosining o'ziga xosligida, olingan ma'lumotlarning ma'lum bir tarzda tashkil etilgan ruhiy muvozanatining barqarorligida har qanday xalq odamlarining biosotsial hamjamiyati va madaniy hodisa sifatidagi qadriyati yotadi" [2]. Bunday stereotiplarni buzish etnosni tarixiy ildizlaridan mahrum qilishga urinish demakdir. Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun nafaqat chet tilini bilish, balki dunyoning lingvistik manzarasini qayta qurishda juda muhim bo'lgan turli etnik stereotiplarning haqiqat yoki yolg'onligi nuqtai nazaridan xorijiy davlat madaniyatini bilish ham maqsadga muvofiqdir. Stereotiplarning haqiqiy yoki asossizligiga, haqiqat yoki yolg'onligiga qaramay, ularning barchasi har qanday madaniyatning ajralmas elementi bo'lib, ular mavjudligining o'zi bilan odamlarning psixologiyasi va hatti-harakatlariga ta'sir qiladi, ularning ongi va millatlararo aloqalariga ta'sir qiladi. Stereotiplar insonga butun dunyo haqida tasavvurni shakllantirishga, uning tor ijtimoiy-madaniy muhitidan tashqariga chiqishga imkon beradi. Stereotiplar o'z navbatida urf-odatlarini himoya qilish, madaniy hayotning o'sib borayotgan universallasuvi va madaniy muammolarning paydo bo'lishi sharoitida zarur bo'lgan o'z madaniyatining asosiy qadriyatlarini saqlab qolish, monomadaniy dunyoni shakllantirish kabi aspektlar bilan chambarchas bog'liq.

Ko'p hollarda stereotiplar haqiqat va hayotiy tajribaga zid bo'lsa ham, odamlar o'z stereotiplarini saqlab qolishadi. Shu sababli, madaniyatlararo aloqalar sharoitida stereotiplardan xabardor bo'lish va ulardan foydalanish, shuningdek, agar haqiqatga mos kelmasa, ularni rad etish imkoniyatiga ega bo'lish yoki uar bilan samarali kurasha olish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda dunyodagi jamiki xalq, elat, madaniyatlarning faqat ularga xos bo'lgan, takrorlanmas stereotiplari mavjud. Bunday stereotiplarning shakllanishida ko'plab faktorlar ta'sir etganligini ham ta'kidlab o'tishimiz zarur. Tarixiy davrlardagi tarixiy voqea-hodisalar, tarixiy bosqinlar, davlatning geografik joylashuvi, madaniy shakllanishi, ushbu madaniyatdagi turli urf-odatlar, og'zaki va yozma nutq va madaniyat, adabiyot, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib boruvchi folklor namunalari, madaniy marosimlar, bazmlar, xalq mentaliteti, madaniy aloqalar, madaniy muloqotlar va shunga o'xshagan boshqa unsurlar stereotiplarning u yoki bu xalqqa aloqador bo'lishini ta'minlaydi.



## REFERENCES:

1. Akramov, I. (2021). THE SPECIAL SIGNS, PROPERTIES AND CHARACTERISTICS OF THE APHORISMS. CENTER FOR SCIENTIFIC PUBLICATIONS (buxdu. Uz), 5 (5).
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений – М.: Академия, 2001.
3. Craig McGarty, Vincent Y. Yzerbyt va Russell Spears. Stereotypes as explanations. Cambridge University Press, 2002.
4. Lawrence Blum. Stereotypes and Stereotyping: A Moral Analysis. Philosophical Papers, vol. 33, No. 3, November 2004.
5. Navruzova Nigina Xamidovna,(2021). Approaches To Lexical Connotations, *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*,1721-1726.
6. Saparova, M. R. (2016). The problem of stylistic classification of colloquial vocabulary. *Міжнародний науковий журнал*, (5 (1)), 80-82. <https://www.inter-nauka.com/uploads/public/1505892674749.pdf#page=81>
7. Umurova, K. (2018). Making Critical Thinking Intuitive In Efl Classes: Using Drama, Examples, And Images. *Проблемы и достижения современной науки*, 1(1), 43-47.

